



## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

### **O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag'ishlangan**

**“O'ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA'LIM  
TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuyidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a’zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan tezis va maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-sen bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-sen buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan “**O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati**” nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

tovushlarni qattiq yoki pastlata olmas edi. Klavisinda dinamik belgilar, ya’ni tovush kuchini ko’payturuvchi yoki kamaytiruvchi ham nisbatan murakkab ijrochi o’z xoxishi bilan tovush sifatida ta’sir ko’rsata olmas edi. Takomillashgan klavisin ikkita manuolga, ya’ni ikki klavitura pedalga ega bo’lgan. O’zining chegaralangan imkoniyatlariga qaramasdan, klavisin yuqori registrda jarangli tembr, obertonlarga mos baslar kabi ajoyib tovushlarga ega bo’lgan. Klavisin san’ati XVI asrda milliy maktablarning paydo bo’lishiga, keyingi avlod kompozitorlariga tayanch bo’lgan an’analarning yaratilishiga olib keldi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YATI**

1. Mark Zilderkvid. Rojdenie fortepiano. – Moskva: “Detskaya literatura”, 1984-yil. Tarjima, S.B.Saidiy, 2001-yil.
2. Zakirova Sh. O’zbekiston kompozitorlarining fortepiano uchun asarlar. - T.: «O’zbekiston». 2010.
3. Zoirov K. Umumiyl fortepiano. (O’quv qo’llanma). - T.: Musiqa, 2004-yil .
4. Muhammadjanova Z. Fortepiano ansambilini o’qitish uslubiyoti. (BMSM uchun o’quv qo’llanma). – Toshkent: Muharrir, 2012-yil.

### **UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI FANI ORQALI O’QUVCHI-YOSHLARGA O’ZBEK MUSIQIY MEROSINI O’RGATISH MASALALARI**

*(Oqilxon Ibrohimov tomonidan yaratilgan 7-sinf musiqa darsligi misolida)*

**Abdurasul RAXIMOV,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti  
“Musiqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi magistranti,  
Romitan tuman 1-IDUM musiqa fani o’qituvchisi.*

**Ma’rifat UMUROVA,**

*Buxoro davlat universiteti “Musiqa  
ijrochiligi va madaniyat” kafedrasи o’qituvchisi,  
mustaqil izlanuvchi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o’qitish orqali o’quvchi-yoshlarga o’zbek musiqiy merosini o’rgatish masalalari haqida fikr yuritilgan. San’atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimov tomonidan umumta’lim maktabi 7-sinf o’quvchilari uchun yaratilgan musiqa darsligida o’zbek musiqiy merosi, mumtoz musiqa, milliy musiqa san’ati kabi dolzarb mavzularning o’z aksini topishi borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Musiqa merosi, uzluksiz ta’lim, umumta’lim maktabi, kompetensiya, darslik, mahalliy musiqa uslubi, maqom, mumtoz musiqa.

Mustaqillik sharofati bilan uzoq o’tmishga ega milliy qadriyatlarimiz tiklanishi barobarida milliy musiqa merosimizga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. Istiqlol yillarda ta’lim tizimiga kiritilgan o’zgarishlar, yangiliklar, dasturlar zamirida o’zbek xalqining boy tarixi, ko’p asrlik an’analari, milliy-ma’naviy

qiyofasi yotadi. Uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlarida ham maktabgacha ta’limdan tortib, to oliv ta’limga qadar milliy ruh o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori 3-ilovasi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari”da tayanch va fanga oid umumiy kompetensiylar qatorida **Milliy va umummadaniy kompetensiya** – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.<sup>113</sup>

Umumta’lim maktabida o‘qitiladigan barcha fanlar qatorida musiqa madaniyati fani ham o‘z oldiga bir qancha maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan musiqa madaniyati fanining o‘quv dasturida qayd etilganidek, umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishning maqsadi - o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g‘urur, Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o‘stirish, o‘zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o‘rgatishdan iboratdir.

Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishning vazifasi esa - musiqa madaniyati o‘quv fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirishdan iboratdir.<sup>114</sup>

Musiqa madaniyati fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilarini (7-sinf o‘quvchilari)ga qo‘yiladigan malaka talablarida Musiqiy savodxonlik kompetensiysi bo‘yicha A2 (Musiqa madaniyati fanini o‘rganishning tayanch darjasи) musiqa san’atning qadimiy turi ekanligi, o‘zbek xalq musiqasi asrlar davomida sayqal topib, rivojlanganligi, u xalqimizning boy madaniyati, milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettirishi va umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo‘lagi ekanligini tasavvur qilishi, O‘zbekiston hududida mumtoz musiqaning mahalliy an’analarga ega ekanligi, ularning o‘xshashligi va o‘ziga xosligini farqlay olishi, har bir mahalliy uslubda o‘ziga xos ijrochilik uslublari va cholg‘u asboblarini farqlay olishi, Farg‘ona — Toshkent, Samarqand — Buxoro, Surxondaryo — Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlarini (maqom, doston, katta ashula, folklor musiqasini) va ularning mashhur ijrochilarini bilishi va boshqalarni nazarda tutadi.

<sup>113</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.

<sup>114</sup> Umumiy o‘rta ta’limning Musiqa madaniyati fanidan o‘quvchilarda kompetensiylarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2017.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsad va vazifalar hamda malaka talablarini bajarishda darslik<sup>115</sup> muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash lozimki, San'atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimov tomonidan umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilari uchun yaratilgan musiqa darsligi yuqoridagi barcha talablarga to'laqonli javob bera oladi. Darslik o'quvchilarga mahalliy musiqiy an'analardan, mumtoz musiqaning yuksak durdonalari bo'lmish maqom namunalaridan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkonini beradi. Darhaqiqat, darslikda o'quv yilining birinchi yarimyilligi uchun berilgan materiallar o'quvchi-yoshlarga o'zbek milliy musiqa merosini o'rgatish kabi ustuvor vazifani o'z ichiga qamrab oladi. Birinchi chorak davomida Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Farg'ona-Toshkent musiqa uslublari o'rgatilsa, ikkinchi chorakda esa, Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari haqida tushuncha beriladi.

Tarixdan ma'lumki, davrlar o'tishi bilan xalqlarda chegaralanish, hududlarga bo'linib yashash avj olishi natijasida ularning urf-odatlari, an'analari bir-biridan farqlana boshlagan. Bu esa bevosita musiqa san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'zbek xalq musiqa merosida 4 ta mahalliy uslub o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu uslublarning paydo bo'lishi hududlarning etnik birligi, yashash sharoiti, turmush tarzi hamda o'ziga xos qadriyatlariga bog'liq.

Mustaqillik yillarda mana shunday qadimiy xalq musiqa merosini tiklash, noyob namunalarini xalqimiz madaniy hayotiga olib kirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim tizimida musiqa madaniyati fani bo'yicha umumiyo o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarida musiqa san'atning qadimiy turi ekanligi, o'zbek xalq musiqasi asrlar davomida sayqal topib rivojlanganligi, u xalqimizning boy madaniyati, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi va umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila olishi, O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligini farqlay olishi, har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini farqlay olishi, Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent hamda Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlarini (maqom, doston, katta ashula, folklor musiqasini) va ularning mashhur ijrochilarini bilishi belgilab qo'yildi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'quvchi-yoshlarda mahalliy musiqa uslublari haqida ilk tasavvurlarni shakllantirish aynan umumta'lim maktabi musiqa madaniyati fanining vazifasi bo`lib qolyapti. Bugungi kunda amaliyotda o'llanila-

<sup>115</sup> **Darslik** — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

yotgan 7-sinf musiqa (O.Ibrohimov, J.Sadirov) darsliklarining aynan birinchi chorak mavzularida asosiy e'tibor mahalliy musiqa uslublari haqida tushuncha berishga qaratilgan.

O'zbek musiqa merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiyligi, takrorlanmas badiiy uslubi hamda boy ijodiy an'analar bilan ma'naviy hayotimizda o'z o'rniga egaligi bilan qadrlanadi. Hozirgi davrga kelib yurtimizda maqom san'atini keng ommaga targ'ib etish borasida ko'plab ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa yosh avlod qalbida milliy musiqa san'atimizga bo'lgan qiziqishni, e'tiborni uyg'otish asosiy maqsadlarimizdan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ilk bor VII-VIII asrlarda xalq musiqasi negizi va mahalliy professional ijrochilik an'analarining rivoji yirik turkumli janrlar shakllanishiga olib kelgan. Jumladan, Borbad ijodiga mansub "Xusravoniy" turkumi. IX-X asrlarda maqomsimon cholg'u va ashula-cholg'u asar va turkumlar rivojlangan. XI-XIII asrlardan boshlab, to XVII asrgacha Yaqin va O'rta Sharqda "Duvozdahmaqom" – 12 maqom turkumi keng tarqalib, musiqa amaliyotida qo'llanib kelingan.

XVIII asrda Buxoroda yangi turkum – "Shashmaqom" shakllangan. XIX asrda "Xorazm maqomlari" turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga kelgan. Keyinchalik "Shashmaqom" va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarining yangi uslublari va ko'rinishlari zamonaviy talqinda rivojlangan. Maqomchilik san'ati qonunlarini sharhash, asoslash, musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid masalalar IX asrdan boshlab musiqiy risolalarda o'z aksini topdi. O'quvchi-yoshlarda maqom san'ati haqida ilk tushunchalar ham musiqa madaniyati darslarida shakllanadi. Shunga ko'ra, amaldagi 7-sinf musiqa (O.Ibrohimov, J.Sadirov) darsliklarining aynan ikkinchi chorak mavzularida asosiy e'tibor maqom san'ati haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani orqali o'quvchi-yoshlarda o'zbek musiqiy merosini haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish, ularni mumtoz musiqa namunalaridan bahramand etish, xalq musiqa ijodi, og'zaki an'anadagi professional musiqa borasida bilimlarni o'rgatishda Professor Oqilxon Ibrohimov tomonidan yaratilgan 7-sinf musiqa darsligi muhim ahamiyatga egadir.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.

2. Umumiy o'rta ta'limning Musiqa madaniyati fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturi. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2017.

3. Ibrohimov O, Sadirov J., Musiqa: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. -160 b.

4. Raximov A.R., Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari haqida tushuncha berish. "O'zbek xalq musiqa san'ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari

zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiysi materiallar to‘plami. Buxoro-2023.

5. Rajabov To‘xtasin Ibodovich, Raximov Abdurasul Ravshan o‘g‘li. Xalq musiqa ijodiyotining rivojlanish bosqichlari va musiqa san’ati fidoyilarining faoliyati xususida // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnal. 2022. №5.

## **MUSIQA DARSLARIDA - O‘QUVCHI YOSHLARDA ONG, MILLIY TAFAKKURANI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI**

**Suxrob DUSTOV,**

*Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti*

1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Olimjon KARIMOV,**

*Buxoro davlat universiteti*

*Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti,*

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi tarbiyasiga bog‘liq.

Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasini oshirish albatta ta’lim metodikasiga bevosita bog‘liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo‘lib o‘zining mustaqil o‘rniga ega. “Musiqa madaniyati” darslari tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruhshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi.

Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan o‘zviy bog‘liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning quylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika fiziologiya tadqiqotlariga taniladi. Musiqa tarbiyasi metodikasining mohiyati musiqa san’ati hamda madaniyati o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega. Musiqa asarni ongli idrok etish asar mazmunini ochishda va o‘quvchilarga musiqiy tajribalarini to‘plashda, ularning ma’naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi emotSIONAL onglilik prinsipi uyg‘unlashish ko‘payishi orqali tinglanadigan asarni to‘g‘ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi:

Ularning musiqaga qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O‘quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e’tibor beradi. O‘quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. “Musiqa madaniyati” darslari jarayoni ko‘pgina omillarga bog‘liq ekanligini e’tirof etadi. O‘quvchilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta’siri ostidagina shakllanmaydi. Uyda albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta

qoya qoyatosh sur'atlarining ta'limganligi ahamiyati.....	182
<b>Xudoqulova N.X.</b> Fortepiano ijrochiligidagi badiiy talqin ( <i>A.Safarovning "Alla" asari misolida</i> ).....	187
<b>Карякина Л.М.</b> К вопросу изучения фортепианного концертмейстерского искусства в Узбекистане.....	190
<b>Abduvaliyeva G.K.</b> Milliy musiqa ta'limi tizimida ustoz-shogirdlikning zamonaviy interpretsiyasi.....	193
<b>Shaxodjayeva M.A.</b> Xonandalik ta'limida psixo-emotsional omillar.....	196
<b>Farmonov F.N., Karimov O.I.</b> Kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqiy bilish imkoniyatlari.....	198
<b>Ilhomjonova D.I., Xudoyev G.M.</b> Musiqa madaniyati fanida integratsion yondoshuv.....	203
<b>Нуруллаев Я.Ф.</b> Музыка как средство воспитания детей.....	208
<b>Rustamova X.J.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqiy faoliyati.....	213
<b>Qudratova S.F.</b> Musiqiy qobiliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	216
<b>Toshpo'lotova Z.O'.</b> Fortepiano cholq'u asbobining genezisi tendentsiyalari...	218
<b>Raximov A.R., Umurova M.Y.</b> Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani orqali o'quvchi-yoshlarga o'zbek musiqiy merosini o'rgatish masalalari.....	221
<b>Dustov S.F., Karimov O.I.</b> Musiqa darslarida - o'quvchi yoshlarda ong, milliy tafakkurani shakllantirish vositalari.....	225
<b>Zakirova Z.A.</b> Zamonaviy ta'limning o'quv-tarbiya jarayonidagi mohiyati....	227
<b>Davlatov O.G'.</b> Meros va mas'uliyat tushunchalarining o'ziga xosligi.....	230